

SOLIQ QARZINI UNDIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil izlanuvchi

Babamuratov Jaxongir Rustamovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamizda soliq qarzini undirishning nazariy huquqiy jihatlari, shuningdek soliq qarzini undirish usullari keltirib o‘tilgan hamda soliq qarzini undirishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.


Kalit so‘zlar: soliq qarzi, tan olingan soliq qarzi, talabnoma, inkasso topshiriqnomasi, mol-mulki xatlash, debitorlar, debitor qarzi, soliqlarni undirish, soliq hisoboti, davlat boji, kreditor, sud hujjatlari, sud ijrochilari.

Kirish: Respublikamizda so‘ngi yillarda soliq qarzini undirish sohasida tub islohotlar olib borilmoqda. 2020-yilgacha soliq to‘lovchining mol-mulki hisobidan undirish uchun sudlarga murojaat qilinadigan soliq qarzlarning eng kam me‘yorlari belgilab berilgan. Unga ko‘ra, Soliq kodeksida soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyati yuklatilgan yuridik shaxslar va ularning quyi tuzilmalari uchun soliq qarzlari EKIHning 20 baravarigacha, jismoniy shaxslarning soliq qarzlari EKIHning 5 baravarigacha bo‘lgan hollarda ushbu soliq qarzlarni mol-mulki hisobidan undirish uchun sudlarga murojaat qilinmasligi belgilangan. Ushbu me‘yorni kiritilishi, bir tomondan, sud tartibida undirilayotgan uncha katta bo‘lmagan soliq qarzi bo‘lgan soliq to‘lovchilarning chiqimlarini kamaytirsam, bir tomondan soliq qarzi mavjud yuridik va jismoniy shaxslarning sonini ortishiga olib kelgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq kodeksiga kiritilgan o‘zgartirishlarga asosan bugungi kunda soliq to‘lovchi tomondan soliq qarzi tan olinsa, soliq organi rahbarining (rahbar o‘rinbosarining) qaroriga binoan soliq qarzi bo‘yicha majburiyatga ega shaxsning mulki hisobidan soliq

qarzi undirilishi mumkinligi belgilandi. Muddatida to'lanmagan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni undirish mexanizmining har bir tarkibiy qismi, o'z navbatida bir necha elementlardan iboratdir. Soliq qarzi hosil bo'lgandan keyin to'lanmagan soliq qarzi bo'yicha 3 ish kun ichida Talabnoma elektron shaklda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yoki soliq to'lovchiga pochta orqali yuboriladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda soliq qarzini majburiy undiruvga qaratish jarayoni O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 13, 14 va 15-boblarida o'z aksini topgan (1-rasm).



1-rasm O'zbekistonda talabnoma elektron shaklda soliq to'lovchining shaxsiy kabinetiga yuborish ¹

Agar qarzdor belgilangan muddatda talabnomaga nisbatan o'z e'tirozini bildirmasa, ushbu qarzdorlik tan olingan, boshqa holatlardan tan olinmagan hisoblanadi. Talabnoma yuborish bilan bir vaqtda qarzdorning bankdagi hisob varaqlariga inkasso topshiriqnomasi, jumladan valyuta hisob raqamlariga talabnoma yuboriladi. Yuqoridagi undiruv choralari qo'llanilgandan keyin ham soliq qarzi soliq to'lovchi tomonidan to'lab berilmasa. Tan olingan soliq qarzi bo'yicha soliq organi qarori Majburiy ijro byurosiga yuboriladi. Tan olinmagan qismiga esa sudlarga ariza kiritiladi (2-rasm).



2-rasm Solix qarzini qarzdorligining mol-mulkidan undirish

Xorijiy mamlakatlar soliq tizimi turli hil iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar ta'siri ostida shakllangan, shuningdek soliqqa tortish usullarining hammasini ham takomillashgan va hozirgi kunning talablariga to'liq javob beradi deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu mamlakatlar soliq tizimlarida qo'llaniladigan usullarni

¹ Muallif tomonidan tuzilgan

respublikamiz soliq tizimiga milliy iqtisodiyotimiz xususiyatlarini e'tiborga olgan holda qo'llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Xorijiy davlatlarning soliq tizimiga nazar tashlaydigan bo'lsak, unda soliqlarni undirish usullari alohida ahamiyatga ega ekanligini hamda soliq undirish usullarining xilma xil ravishda qo'llanilishini ko'rishimi mumkin.

Amerik Qo'shma Shtatlari. AQSh soliq qonunchiligida soliqlar va penyani to'lashdan bosh tortgan taqdirda qarzdor soliq to'lovchining barcha mol-mulkiga va uning mulkiy huquqlariga qaratishni nazarda tutadigan qoida mavjud. Majburiy undiruvni qo'llash oldidan ko'pchilik mamlakatlarda soliq to'lovchilarga soliqlar bo'yicha qarzlarini mustaqil ravishda uzishlarini so'rab bildiruvnoma oldindan yuboriladi. AQSh qonunchiligi ham soliq organlaridan qarzdorlarga belgilangan muddatlarda to'lashni talab etgan holda ana shunday bildiruvnoma yuborishni talab etadi.

Rossiya Federatsiyasi. Rossiya qonunchiligida jismoniy shaxsdan quyidagi ketma-ketlikda soliq undiriladi: avvalo bankdagi hisobvaraqlaridagi pul mablag'iga, keyin navbat bilan naqd pul mablag'iga, shartnoma bo'yicha boshqa shaxslarga, unga doir mulk huquqi o'tkazilmasdan, egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etishga berilgan mol-mulk hisobiga, agar soliq to'lash majburiyatining ijrosini ta'minlash uchun bunday shartnomalar belgilangan tartibda bekor qilingan yoki haiqiqiy emas deb topilgan bo'lsa, boshqa mol-mulk hisobiga, jismoniy shaxs yoki uning oila a'zolari kundalik shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangani bundan mustasno. Soliq qarzi uzilmagan taqdirda jismoniy shaxslar uchun bir qator oqibatlar yuzaga kelad. Chunonchi, davlat oldidagi majburiyatini bajarmagan RF fuqarosini Rossiya Federatsiya fuqaroligidan chiqarishga yo'l qo'yilmaydi.

Kanada. Kanada qonunchiligida soliq organlari sudga murojaat qilmasdan qarzni undirishlari mumkin. Biroq ular soliq to'lovchini majburiy undiruv chorasini qo'llash niyatlari to'g'risida oldindan ogohlantirishlari hamda soliq va penya to'lash uchun muddatni kechiktirish imkonini berishlari kerak.

Yanada qattiqroq majburlash choralarini qo'llash uchun soliq organlari sudga murojaat qilib, sud organlari bilan harakt qiladi. Soliq to'lovchining mol-mulki hisobiga soliqlarni to'lash bo'yicha majburiyatlari ijrosini ta'minlash uchun avvalo sudning hal qiluv qarorini olish zarur, u keyin qarzdorga tegishli bo'lgan mol-mulkka Yu qarz majburiyati sifatida ro'yxatdan o'tkaziladi. **Sud muayyan hollarda soliq organlarini xabardor qilmasdan turib soliq to'lovchining mol-mulkini transfert qilishini ta'qiqlaydigan hal qiluv qarori ham chiqarishi mumkin.**

Avstriya, Argentina, Belgiya, Braziliya, Vengriya, Germaniya, Gresiya, Daniya, Isroil, Ispaniya, Italiya, Kipr, Janubiy Koreya va Yaponiya kabi davlatlar qonunchiligida davlat buyurtmasi bo'yicha shartnoma tuzishda soliq qarzining mavjud bo'lmasligi asosiy shart bo'lib hisoblanadi.

Avstraliya, Isroil, Italiya, Indoneziya, Koreya, Malayziya, Niderlandiyada soliqdan qarzi mavjud bo'lgan jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning rahbarlari boshqa davlatlarga sayohatga borishlariga cheklov o'rnatilgan.

Argentina, Braziliya, Bolgariya, Vengriya, Gresiya, Kipr, Xitoy, Janubiy Koreya, Malta, Portugaliya, Saudiya Arabistoni, Turkiya qonunchiligiga ko'ra soliq qarzining mavjudligi qarzdorga davlat xizmatlari ko'rsatilishini rad etishning asosi bo'lib hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagilarni taklif qilamiz:

-birinchi navbatda soliq madaniyati darajasini oshirishga yo'naltirilgan soliqqa oid qonun hujjatlarini normalarini takomillashtirish;

-soliq qarzlarini undirish jarayoni soddalashtirilib, korxonani ortiqcha xarajatlardan va yangi qarzdorliklar paydo bo'lmasligi uchun Angliyadagi kabi qarzdorni sudda ish ko'rilganida davlat bojidan ozod etish;

-soliq organlariga soliq qarzi undiruvini qarzdor soliq to'lovchining debitoriga qaratish huquqini berish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bu esa, muddati o'tgan debitorlik qarz hisobidan 5 674,0 mlrd. so'mlik soliq qarzining to'lanishiga amaliy yordam berish imkoniyati bilan birga davlat bojiga

to'laydigan 7,9 mlrd so'mni qarzdor korxonalarini ixtiyorida qolish imkoniyati yaratiladi.

-soliq qarzigina nisbatan qarzdorning mol-mulkigina ta'qiqi qo'yish tartibini yakka tartibdagi tadbirkorlar va jismoniy shaxslarga nisbatan ham tatbiq etish;

-qarzdor jismoniy shaxslarning pullik davlat xizmatlaridan va ayrim siyosiy huquqlardan foydalanish hamda elektron savdolarda ishtirok etish huquqlarini cheklash;

-iqtisodiy sudlarga da'vo bilan chiqilganda, sud odatda faqatgina mol-mulkigina qaratish to'g'risida qaror chiqarish bilan cheklanadi (faqat shu uchun davlat boji hisoblanadi), Iqtisodiy sudga berilganda sud qaror nafaqat soliq to'lovchining mol-mulkidan undirish, balki korxonani bu ahvolga olib kelgan aybdor shaxslarga nisbatan qat'iyroq ta'sirchan choralar qo'llash bo'yicha qaror chiqarishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish" M.Almardonov, S.Xudoyqulov, O.Yusupov, A.Agzamov Darslik TDIU 2012 yil

2. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Soliq qo'mitasi ma'lumotlari.

3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 01.01.2008 yil

4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 01.01.2020 yil (yangi tahrir)

5. O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 11 martdagi O'RQ-758-son Qonuni

6. O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida"gi Qonuni 1997 yil 29 avgust.

7. "Soliqlar va soliqqa tortish" darslik A.Vahobov, A.Jo'raev 2009 yil

8. O'zbekiston Respublikasining 2001 yil 29 avgustdagi (258-II-son) "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi Qonuni.

9. https://vaqt.ucoz.com/iqtisod_va_moliya/

10. https://uz.zahn-info-portal.de/wiki/Taxation_in_Canada